

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

QODIRXONOV MURODXON RASHIDXONOVICH

**AYRIM POLISAXARIDLAR VA ULAR ASOSIDAGI
POLIKOMPLEKSLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich Ayrim polisaxaridlar va ular asosidagi polikomplekslarning fizik-kimyoviy xossalari	3
Кодирхонов Муродхон Рашидхонович Физико-химические свойства некоторых полисахаридов и поликомплексов на их основе	29
Kodirkhonov Murodkhon Rashidkhonovich Physico-chemical properties of some polysaccharides and polycomplexes based on them	55
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	60

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

QODIRXONOV MURODXON RASHIDXONOVICH

**AYRIM POLISAXARIDLAR VA ULAR ASOSIDAGI
POLIKOMPLEKSLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Kimyo fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.2.DSc/K49 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (polychemphys.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.


Ilmiy maslahatchi:	Rashidova Sayyora Sharafovna kimyo fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi
Rasmiy opponentlar:	Kudishkin Valentin Olegovich kimyo fanlari doktori, professor Karimov Aminjon Karimovich kimyo fanlari doktori, professor Boymirzayev Azamat Soliyevich kimyo fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Milliy universiteti


Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.27.06.2017.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «21» iyun soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7^b uy. Tel.:(+99871)241-85-94, faks: (+99871)241-26-60, e-mail: polymer@academy.uz)


Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin, 42 raqami bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7^b uy. Tel.:(+99871)241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «6» iyun kuni tarqatildi.
(2024 yil «6» iyun daqiqa 1 raqamli reyestr bayonnomasi.)




N.R.Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
t.f.d., professor


M.M.Usmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi,
k.f.n., katta ilmiy xodim


A.A.Ataxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fundamental va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan biologik faol, bioparchalanuvchi polimerlarni qayta tiklanadigan manbalarini aniqlash, hamda ular asosida maxsulotlar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Makromolekulalarning kimyoviy o'zgarishlari va o'rganish usullarini ishlab chiqishda zamonaviy polimerlar fani fizikaviy va kimyoviy tadqiqotlar natijalariga tayanadi, chunki bunday tadqiqotlar kerakli xususiyatlarga ega bo'lgan polimer materiallar yaratishning asosini ta'minlaydi. Shu o'rinda, polisaxaridlarning tuzilishi va xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda polisaxaridlarni qo'llash sohalarining jadal kengayib borishi barobarida, ularni keng qamrovli tadqiq etish masalasi ko'plab tadqiqot markazlarida ustivorlik bilan amalga oshirilmoqda. Biopolimerlar kimyoviy tuzilishining murakkabligi tufayli turli xil xomashyo manbalaridan ajratilgan polisaxaridlarning tuzilishi va xossalarini aniqlash muammolari hamda ular asosida yangi materiallarni yaratish, ilmiy yechimini kutayotgan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda mahalliy xomashyolar - Na-karboksimetilsellyuloza, metilsellyuloza, xitozan hamda ularning hosilalarini molekulyar darajada o'rganish va modifikatsiyalash, ular asosida samarali xossalarga ega bo'lgan nanomateriallarni yaratishga yo'naltirilgan polimer sanoati va fanini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ hamda 2030-yilgacha bo'lgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida² «... mamlakatimiz ilm-fanni rivojlantirish hamda fundamental tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbqiq qilish» vazifalari belgilab berilgan. Shu bois, qayd etilgan polisaxaridlarning eritmalarida namoyon bo'ladigan xossalari, tuzilishi bilan bog'liq xususiyatlarini aniqlash, ularni o'zaro ta'sirlashuvi asosida polimer komplekslarini yaratish va sifatini baholashning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-sonli “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida” Farmoni, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiyaning tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-son farmoni.

texnologiyalarni rivojlantirishining VII bo'limi «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.

Polisaxaridlarning molekulyar tavsiflarini aniqlash, modifikatsiyalash va ular asosida nanomateriallar, shu jumladan polimer komplekslarini yaratish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish masalalarining fundamental va amaliy jihatlarini polimerlar va materialshunoslik fanining asosiy yo'nalishlari hisoblanib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, jumladan, "Reversible Associations in Structural and Molecular Biology" Boston universiteti (AQSh), Biomolecular interaction technologies center (BITC) Delaver Nevark universiteti (AQSh), National Centre for Macromolecular Hydrodynamics, Nottingem universiteti (Angliya), Pusan Milliy universiteti (Janubiy Koreya), Universidad de La Frontera (Chili), Max-Plank Institute of Colloids and Interfaces, Konstanz universiteti (Germaniya), L'Ecole Polytechnique Fédérale de Lausanne (Shveysariya), Department of Universiteti (Chemical Engineering, Government Engineering College, Thrissur, Bharathiar Hindiston), University Science and technology of China (Xitoy), Polimerlar kimyosi instituti, Yoxannes Kepler universiteti (Avstriya), Centro de Biomateriales, Gavana universiteti (Kuba), Centre for BioNano Interactions, Dublin universiteti kolleji (Irlandiya), Moskva davlat universiteti, Yuqorimolekulyar birikmalar instituti (Rossiya), Ye.A.Bekturova nomidagi kimyo instituti (Qozog'iston), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida faol ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Polimerlarning molekulyar massasi va konformatsiyasini aniqlashning fundamental va uslubiy masalalariga oid jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: polisaxaridlarning molekulyar massasiviy tavsiflari va eritmasining gidrodinamik qonuniyatlari ishlab chiqilgan (Yuqorimolekulyar birikmalar instituti, Rossiya; Nottingem universiteti, Angliya); turli omillar ta'sirida polisaxaridlarni konsentrlangan eritmaları hamda gidrogellarini reologik xossalari aniqlangan. Polisaxaridlarni dinamik va mexanik xossalarini reologik usullar orqali zamonaviy tahlillari amalga oshirilgan (Pusan Milliy universiteti, Janubiy Koreya; Klemson Universiteti va Illinois Universiteti, AQSh); analitik ultrasentrifugada polimerlar asosida interpolimer kompleks hosil qilib, plyonkalar olishning va ularni baholashning nazariy, eksperimental jihatlarini ishlab chiqilgan (L'Ecole Polytechnique Fédérale de Lausanne, Shveysariya); kumush nanozarrachalarni polisaxaridlar bilan kompozitsiyasi olingan, uning antimikrob xususiyati yaxshilangan, ekologik barqarorligi ta'minlangan (Universidad de La Frontera, Chili). Shuningdek, xitozan bilan funksionallashtirilgan kumush nanozarrachalari olingan va tavsiflash usullari ishlab chiqilgan va tibbiyotda qo'llanilgan (Bharathiar Universiteti, Indiya). Polisaxarid bilan barqarorlashtirilgan kumush nanozarrachalarining morfologiyasi, tuzilishi aniqlangan (Syiah Kuala Universiteti, Indoneziya).

Dunyoda polisaxaridlarni, xususan xitozanni molekulyar darajada o'rganish hamda uning asosida turli ehtiyojlar uchun yangi materiallar yaratish borasida keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirimoqda. Biroq, xitozan murakkab tuzilishga

ega ekanligi bois, uning molekulyar massasini aniqlashning hanuzgacha dunyo bo'yicha yagona standarti ishlab chiqilmagan. Polisaxaridlar asosidagi interpolimer komplekslarni yaratish, ularning komponentlari namoyon qila olmaydigan xossalarga ega bo'lishi bilan bog'liqligi sababli kompleksning polimer komponentlarini ta'sirlashish sharoitlarini boshqarish muhim hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xitozan bu sohada eng istiqbolli polisaxarid sifatida namoyon bo'lmoqda va mazkur polisaxaridni boshqa polimerlar bilan komplekslariga bo'lgan qiziqish fan va amaliyotda yuqori darajadadir. Shu bois, xitozan asosidagi polikomplekslarni yangi avlodini yaratish sohasidagi tadqiqotlar ustivor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida polisaxaridlarni eritmadagi xossalarni, molekulyar massaviy tavsiflarini aniqlash, xitozan va boshqa polisaxaridlar asosida komplekslar olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Helmut Coelfen (Germaniya), Steven Harding (Angliya), Christine Wandrey (Shveysariya), A. Bocek (Rossiya), Ye.A.Bekturov, S.Ye.Kudeybergenov (Qozog'iston) kabi olimlar tomonidan polisaxaridlar eritmasining turli sharoitlardagi xossalarni molekulyar massasiga bog'liq ravishda o'zgarishi qonuniyatlari aniqlash, shuningdek, xitozan asosidagi polikomplekslarni olish rivojlantirib kelinmoqda. Polisaxaridlarni reologik usullarda tadqiq etish orqali uning tuzilishi hususiyatlari, oqimdagi o'zgarishlar va boshqa moddalar bilan ta'sirlashishining tabiatini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada jumladan Osvaldo H. Campanella (AQSH), Maria G. Miguel (Portugaliya), Vladimir Izumrudov (Rossiya), Kajal K.Mali (Hindiston) kabi olimlarning ilmiy guruhlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda. Shuningdek, Roberto Berlini (Italiya), Saranya Sugumar (Indiya), Jinhwan Yoon (Janubiy Koreya), Carlos Salas (Chili), Mary Ann White (Kanada) xitozandan matrisa sifatida foydalanish, nanomateriallar olish va uni biologik preparat sifatida qo'llash hamda nanozarrachalarni turli usullarda olish va tavsiflash borasida etakchi olimlar sanaladi.

O'rganilayotgan sohani O'zbekistonda Jahon tendensiyalariga muvofiq ravishda rivojlantirilishi akademik S.Sh. Rashidova va uning shogirtlari, professorlar M.G.Muxamediyev, G.I.Muhamedov, A.A.Sarimsoqov, X.I.Akbarov, S.I.Inagamov, N.R.Voxidova va boshqa yetakchi olimlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega mahalliy xomashyo bo'lgan Na-KMS, MS, *Bombyx mori* xitozani (XZ) hamda ularning hosilalarini tuzilishi xususiyatlarinin o'rganish va kimyoviy va fizikaviy o'zgarishlarni amalga shirib ular asosida samarali xossalarni namoyon etadigan nanomateriallarni yaratish polimerlar sohasini rivojlantirishning asosiy omillaridandir. Qayd etilgan polisaxaridlarning eritmalarida namoyon bo'ladigan xossalari, tuzilishi bilan bog'liq xususiyatlarini aniqlash, ularni o'zaro ta'sirlashuvi asosida polimer komplekslarini yaratish va sifatini baholashning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega masalalardan biridir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi, shuningdek, davlat ilmiy-texnik dasturi bo'yicha F-7-19 "Mahalliy xomashyo manbalari polisaxaridlarining molekulyar massaviy va konformatsion tavsiflari xamda ular asosidagi polikomplekslarining tarkibi, tuzilishi va xususiyatlariga ta'siri" (2012-2016 yy) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy polisaxaridlarning termodinamik va strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, ularga polimer matrisa sifatida metall nanozarrachalarini kiritib biologik faol birikmalar olish istiqbolini aniqlash, shuningdek, analitik ultrasentrifugada sun'iy qatlamlanish orqali polisaxaridlar asosida polikomplekslar olishning takomillashtirilgan usullarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Na-KMS va xitozan namunalarning molekulyar-massaviy tavsiflarini o'rganish va eritmalarining oqimdagi harakatlanishi orqali reologiya usulida makromolekulalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ionlash jarayonida xitozan konformatsiyasining termodinamik parametrlarini aniqlash va polimer-polimer tizimlarining o'zaro moyilligini reologik tadqiqotlar orqali aniqlash;

turli fizik-kimyoviy usullar yordamida Na-KMS hamda xitozan polisaxaridlari eritmalarining xususiyatlarini va ular asosidagi polikompleksning strukturaviy va morfologik xususiyatlarini, sorbsion xossalari o'rganish;

makromolekulalarning o'zaro ta'siriga turli omillarning ta'sirini aniqlash va analitik ultrasentrifugada sun'iy qatlamlash usulida xitozan polikomplekslarini olish hamda ularning xususiyatlarini baholash;

elektrospinning usulida xitozan nanotolalarini hosil bo'lishiga molekulyar og'irligini ta'sirini o'rganish va xitozanni kumush metall nanozarrachalar stabilizatori sifatidagi rolini aniqlash hamda metilsellyuloza asosida gibrid nanokompozitsiya yaratish.

Tadqiqotning ob'yekti paxta sellyulozasidan olingan Na-KMS, tabiiy ipak ishlab chiqarish chiqindilaridan olingan *Bombyx mori* xitozani, ular asosidagi polikomplekslar, tarkibida kumush bo'lgan polimer matrisalar, xitozan nanotolalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Na-KMS va xitozan asosida polimer komplekslarini olish, shuningdek, analitik ultrasentrifugada sun'iy qatlamlash usuli bilan ularning xususiyatlarini baholash. Metall nanozarrachalarini polisaxaridlar bilan barqarorlashtirish va nanokompozitsiyalar olishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analitik ultrasentrifugalash, sedimentatsiya, viskozimetriya, reologiya, termogravimetriya, potensiometriya, elektrospinning, ultrabinafsha (UB), infraqizil (IQ) va yadro magnit rezonansi (YAMR) spektroskopiyasi, elektron mikroskopiya, rentgen-tuzilmaviy tahlil, polarizatsion-ultramikroskopiya, shuningdek termodinamik hisoblashlar va matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor analitik ultrasentrifugada sun'iy qatlamlash usuli bilan polisaxarid komplekslarining strukturalangan plyonkasini olish imkoniyati yaratilgan va real vaqt rejimida hosil bo'lgan plyonkaning qalinligi, gomogenligi, simmetriyasi, shaffofligi va kinetikasi aniqlangan;

XZ/Na-KMS interpolielektrolit komplekslarini hosil bo'lishining optimal sharoitlari aniqlangan. Polisaxaridlarning kimyoviy tuzilishi, ularning makromolekulalari konformatsiyasi va o'zaro moyilligi, ionogen guruhlarning mavjudligi va ionlanish muvozanati bilan belgilanadigan o'zaro ta'sirlashuvning termodinamik va kinetik xususiyatlari aniqlangan;

ilk bor *Bombyx mori* xitozanining molekulyar massasini eritma qovushqoqligiga bog'liqlik qonuniyati aniqlangan va gidrodinamik tadqiqotlar asosida konformatsiyasi o'rganilgan;

XZ/Na-KMS tizimi uchun geldan eritmaga o'tish chegaraviy konsentratsiyasi aniqlangan, o'rganilgan polisaxaridlar va ularning kompleksi eritmalarining reologik tadqiqotlari asosida namoyon bo'ladigan gidrodinamik xususiyatlari tahlil qilingan, polisaxaridlarni kuch ta'sirida oriyentatsiyalanishining miqdorlari aniqlanib, o'zaro ta'sirilashishdagi ijobiy effekti aniqlangan;

ilk bor XZ/Na-KMS interpolimer kompleksi (IPK) plyonkalarining sorbsion xususiyatlari aromatik birikmalarga nisbatan sifat va miqdoriy jihatdan aniqlangan;

ilk bor *Bombyx mori* xitozani, uning molekulyar massasi va konformatsiyasini o'zgartirmagan holda flyuroizosianat immobilizatsiya qilingan, natijada UB nurlarini yuqori darajada yutuvchi flyurossent xitozani olingan;

xitozanni nanotola hosil qilish xususiyati va morfologiyasi bilan molekulyar massasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, sifatli nanotola olish uchun optimal sharoitlar aniqlangan;

ilk bor xitozan va metilsellyuloza matrisa sifatida kumush nanozarrachalarini stabillashirishining pHga bog'liqlik xususiyatlari hamda antibakterial xossalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

belgilangan o'lcham va molekulyar massaga ega, tarkibi bo'yicha bir xil bo'lgan *Bombyx mori* xitozani olingan;

mahalliy polisaxaridlar uchun analitik ultrasentrifuga yordamida real vaqt rejimida strukturalangan interpolimer kompleksini olishning va tahlil qilishning yangi usuli joriy etilgan;

mahalliy xomashyo manbalaridan biologik faol, bioparchalanuvchi va notoksik polimer preparatlarini yaratishga yordam beruvchi XZ/Na-KMS IPKning optimal tarkibi yaratilgan;

XZ va Na-KMS asosida IPK olish jarayoni uchun eritma konsentratsiyasi, molekulyar massasi, pH, komponentlar nisbati bo'yicha optimal sharoitlari aniqlangan;

XZ/Na-KMS IPKning kumushni va organik moddalarni sorbsiyalash xususiyati tasdiqlangan;

patogen mikroorganizmlarga qarshi bakterisid xususiyatiga ega bo'lgan kumush nanozarrachalar bilan metilsellyulozaning gibrid kompozitsiyalarini olish imkoniyati isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalar klassik va zamonaviy kimyoviy, fizik va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan tasdiqlangan, dissertatsiya ishining xulosalari jahon tajribasida qo'llanilib kelinayotgan analogik obyektlarga solishtirishganda yuqori molekulyar birikmalar kimyosining asosiy qoidalariga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Bombyx mori* xitozani uchun muayyan sharoitdagi molekulyar massasini eritma qovushqoqligiga bog'liqligini va konformatsiyasini aniqlashdan, XZ/Na-KMS tizimi uchun eritmadan gelga o'tish chegara konsentratsiyasini aniqlashdan, XZni eritmada oquvchanlik xossasiga deasetillanish darajasi (DD)ni bog'liqligini aniqlashdan, XZ/Na-KMSning strukturalangan plyonkasini hosil bo'lishi, makromlekulaning molekulyar massasiga, komponentlarning konsentratsiyasiga, muhitning pH ko'rsatkichiga bog'liqligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, xitozanni Na-KMS bilan ta'sirlashishda o'zaro moyillikni ta'minlashda aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib boshqa turdosh polimer-polimer tizimlar uchun ham IPK olishda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Na-KMS va xitozan asosida IPK olish va baholash uchun sun'iy qatlamlanish samarali usuli ishlab chiqilganligi, tarkibi va nanozarrachalar o'lchami boshqariladigan biologik faollikka ega polisaxaridlar bilan barqarorlashtirilgan kumush nanokompozitlari olinganligi, yuqori darajadagi flyurofor xossaga ega xitozan sintez qilinganligi, *Bombyx mori* xitozani o'lchamlari boshqariladigan nanotolalar olinganligi, XZ/Na-KMS IPK benzol va toluolni sorbsiyalash imkoniyati ko'rsatilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Ayrim polisaxaridlar va ular asosidagi polikomplekslarning fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

polisaxaridlar asosida IPK olish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar Namangan davlat universitetininig 6053010-“Kimyo” bakalavriat yo'nalishida o'qitiladigan “Yuqori molekulyar birikmalar” kursi tarkibiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 22 maydagi 89-09-2142-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar polisaxaridlar asosida IPK olish va hossalarini turli yondashuvlar asosida baholash bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan;

yuqori tuzli va yuqori haroratda Na-KMS eritmasini reologik xossalari o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar “O'zbekneftgaz” AKning neftburg'ulash amaliyotida foydalanish uchun qabul qilingan. (“O'zbekneftgaz” AJning 2019 yil 25 sentyabrdagi 05-17-1-773-son ma'lumotnomasi). Natijada, Na-KMS eritmasini reologik xossalari ishlab chiqarishdagi sharoitga muvofiqligi belgilangan;

polisaxaridlarning molekulyar massaviy tavsiflari, konformatsiyasi hamda konsentratsiyalangan eritmalarining oquvchanligi bilan bog'liq reologik xossalari bo'yicha ma'lumotlar FA-F6-T097 “Nishon organlar uchun yangi dorivor vositalar olish maqsadida modifikatsiyalangan polisaxaridlar sintezi va ularni biologik

funksiyalari” mavzusidagi loyihada polisaxarid hosilalarining funksional guruhlarini qovushqoqlikka ta’siri hamda ularning viskozimetrik konstantalari va molekulyar massaviy kattaliklari o’rtasidagi bog’liqliklarni aniqlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2019 yil 26 sentyabrdagi 4/1255-2576-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, natriy sulfat sellyulozaning gidrodinamik xususiyatlari va eritmadagi konformatsiyasi va molekulyar massaviy tavsiflari aniqlangan;

analitik ultrasentrifugada *Bombyx Mori* xitozani va Na-KMS asosida strukturaviy interpolimer komplekslarining hosil bo’lishini o’rganish usuli “Bioparchalanuvchi polimerlar” mavzusidagi ilmiy loyihada polisaxarid-polisaxarid tizimlar orasida ta’sirlashuvning optimal sharoitlarini aniqlash va jarayonni baholashda foydalanilgan (Germaniyaning Konstans universitetini 2023 yil 3 iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, polisaxaridlarni o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida polimer komplekslarining shakllanish jarayonini real vaqt rejimida baholash imkoniyati yaratilgan;

xitozanining molekulyar-massaviy va konformatsion tavsiflari, gel-eritmaga fazaviy o‘tishning konsentratsiya chegarasi hamda xitozan uchun optimal erituvchini aniqlash natijalari, xitozanni molekulyar masasini xromatografiya orqali aniqlashda erituvchining pH ko‘rsatkichini belgilash “Biotibbiyotda qo‘llash uchun yangi biodegradatsiyalanuvchi polisaxaridlar sintezi va tavsiflanishi” mavzusidagi O‘zbekiston-Xitoy xalqaro loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Namangan viloyati hokimligining 2024 yil 15 apreldagi 01-21366-sonli ma’lumotnomasi). Natijada xitozanni gidrodinamik va molekulyar massaviy tavsiflarini aniqlash uchun yetarli darajadagi ion kuchiga ega bo‘lgan erituvchisi aniqlangan;

kumush nanozarrachalarni olishga muhitning pH ta’siri, metilsellyuloza bilan barqarorlashtirilgan nanozarrachalarni olish shartlari va parametrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Preparation and characterization of cation exchange membranes” loyihasida foydalanilgan (Pak-Avstriya amaliy fanlar va texnologiya institutining 2024 yil 10 yanvardagi ma’lumotnomasi). Natijada, kation almashinuvchi membranalarda metall ioni aglomeratsiyasi muhitning pH ga bog‘liq ravishda boshqarilgan va o‘lchamlarini aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha olingan asosiy natijalar 6 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 41 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 18 ta maqola, jumladan, 7 tasi Respublika va 11 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkizta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI


Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Istiqbolli polisaxaridlar: manbalari, olinishi va xossalari”** nomli birinchi bobida polisaxaridlar va ular asosidagi IPKlarning tuzilishi va xossalari bo'yicha Respublika va jahonda amalga oshirilgan tadqiqotlarning umumlashtirilgan tahlili keltirilgan. Xitozan va selluloza hosilalari asosida nanomateriallar olish usulining natijalari tahliliy bayon etilgan. *Bombyx mori* xitozani asosida IPKni olish, ularni fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish orqali dissertatsiyaning ilmiy vazifalari aniqlangan.


Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob'yektlari va usullari”** nomli ikkinchi bobida *Bombyx mori* XZ, Na-KMS, MS va ular asosidagi polikomplekslar olishning klassik va zamonaviy usullari hamda sintez qilingan moddalarning xususiyatlarini fizik-kimyoviy xossalarni o'rganishda qo'llanilgan tadqiqot usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“*Bombyx mori* xitozani va Na-KMSning molekulyar massaviy tavsiflari va gidrodinamik xususiyatlari”** nomli uchinchi bobida XZ va Na-KMS gidrodinamik xususiyatlarini o'rganish uchun yuqori darajadagi toza namunalarni olish natijalari keltirilgan. XZ va Na-KMSni molekulyar massaviy tavsifi va konformatsion xususiyatlari aniqlangan. *Bombyx mori* XZ uchun molekulyar massasini gidrodinamik parametrlar bilan bog'laydigan Mark-Kun-Xauvink munosabati aniqlangan.

Xitozanning gidrodinamik va konformatsion tavsiflari. XZ namunalarining 9 ta fraksiyasi olindi va ularning molekulyar massasi 46-98 kDA oralig'ida bo'ldi. XZning konformatsiyasi $[\eta]=K_{\eta}M^a$ Mark-Kun-Xauvink (MKX) tenglamasi parametrlarini hisoblash yo'li bilan aniqlangan. MKX tenglamasidagi daraja ko'rsatkichi a xarakteristik qovushqoqlikning molekulyar massaga bog'liqligini ikkilamchi logarifmik grafigi yordamida aniqlangan (1-rasm). *Bombyx mori* XZning asetatli buferdagi (pH=4,5) eritmasi uchun aniqlangan a ko'rsatkichi $0,84 \pm 0,02$ bo'lib, makrozanjirning qattiq zanjirli tuzilishga ega ekanligini namoyon etadi. Ushbu qiymat XZ uchun boshqa mualliflar tomonidan turli sharoitlar uchun olingan $0,96 \pm 0,10$, $0,90 \pm 0,20$ va $0,87 \pm 0,18$ qiymatlari bilan mos keladi. Xitozanning konformatsiyasi, polimerlarni molekulyar massasi, xarakteristik qovushqoqligi va sedimentatsiya ko'rsatkichlarini o'zaro munosabatlarini tahlil qilishning yangi yondashuvlari asosida 0,2M asetat buferida (pH=4,5) aniqlandi. Sedimentatsiya ma'lumotlarini o'rganish asosida makromolekulaning konformatsiya ko'rsatkichi Uels-Van Xold munosabati $R=k_s/[\eta]$ orqali aniqlandi. R qiymatining 0,35–0,55 diapozonida bo'lishi XZ makrozanjiri qattiq sterjenli, lekin muayyan darajada



1-rasm. Bombyx Mori xitozanining asetatli buferdagi (pH=4,5) molekulyar massasi va xarakteristik qovushqoqligining logorifmik bog'liqligi.



2-rasm. Na-KMS (1) va Na-KMS+2% NaCl (2)ning suvli eritmaları uchun keltirilgan qovushqoqlikni (η_{sol}/C) konsentratsiyaga (C) bog'liqligi.


eruvchanligi gidrodinamik tadqiqotlarni olib borish imkoniyatini yaratdi. Na-KMSning (M_η) molekulyar massasi suvli erituvchi uchun qo'llaniladigan MKX $[\eta] \approx 2,33 \cdot 10^{-4} M_\eta^{1,28}$ tenglamasi orqali hisoblangan. Na-KMSning suvdagi eritmaları polielektrolit effektlari bilan tavsiflanganligi sababli (2-rasm), bu effekt 2%-li NaCl qo'shilishi bilan bartaraf etildi. Na-KMSning suyultirilgan eritmalaridagi tabiati Xaggin qonuniga binoan o'rganildi. η_{sol}/C ning C ga bog'liqligi orqali xarakteristik qovushqoqlik qiymati $[\eta] = 6,45$ dl/g aniqlandi.

Xitozanning dispers tizimlarini olish va ularning oquvchanligi. XZning suvdagi molekulyar-dispers tizimini olish uchun DD>95% va dispers zarrachalar o'lchamlari 80-120 mkm bo'lgan namunalari olindi. Dispers XZning xususiyatlari Reotest-2 qurilmasida siljish oqimida o'rganildi. Turli DD ega namunalari uchun effektiv qovushqoqlikni ($\ln \eta_{eff.}$) siljish oqimining tezlik gradiyenti (γ) bilan bog'liqligini ifodalovchi reogramma shakllantirildi (3-rasm). Ko'rinib turibdiki,


egiluvchanlik xossasi mavjudligini bildiradi. XZning 2 ta namunasi uchun sedimentatsiya ko'rsatkichlariga muvofiq $\log[s]/M_L$ va $\log k_s \cdot M_L$ qiymatlari aniqlandi va ular mos ravishda $0,85 \cdot 10^{12}$, $0,95 \cdot 10^{12}$ va $1,10 \cdot 10^{-11}$, $1,35 \cdot 10^{-11}$ ni tashkil etdi. M_L - xitozan molekulasining birligining massasi (160 g/mol). Ushbu qiymatlarni biopolimerlar uchun "Konformatsiyalar zonasi" kalibrlash diagrammasiga kiritish bilan XZ namunalarining konformatsiyasi aniqlandi va u qattiq tayoqchaga xos, lekin egiluvchanlik holatiga yaqinlashish borligini ko'rsatdi. Xulosa qilib aytish mumkinki, XZ makromolekulasi qattiq zanjirli bo'lsada, unda yarim egiluvchanlik xossalari mavjuddir. Mazkur usul bilan aniqlangan xitozanning konformatsiyasi qovushqoqlik orqali hisoblangan MKX munosabatidagi ko'rsatkichlar K_η ($11,4 \cdot 10^{-3}$) va a (0,84) bilan ham tasdiqlanadi.

Na-KMSning beshta namunasi fraksiyalab eritish yo'li bilan olindi, ularning molekulyar massasi diapozoni 61-127 kDA oralig'ida bo'ldi. Almashinish darajasi $\gamma \approx 0,8$ bo'lgan Na-KMS namunalarining to'liq

xitozanning (1-4) namunalari suvdagi xitin zarralaridan (5) farqli o'laroq, nonyuton oqimi bilan tavsiflanadi.



3-rasm. DD turlicha bo'lgan xitozanning dispers tizimlari uchun suvli muhitda effektiv qovushqoqligini (η_{eff}) siljish oqimining tezlik gradiyentiga (γ) bog'liqligi: 1) DD=30%; 2) DD=62%; 3) DD=78%; 4) DD=95%; 5) Xitin.



4-rasm. Na-KMSning suvli (1) va 2% NaCl (2) eritmasida sirt tarangligi ko'ffisiyenti (α) ni konsentratsiyaga (C) bog'liqligi.

eritmalarining o'rtacha konsentrlangan sohasida polielektrolit effekti mavjud bo'lganda sirt tarangligi nisbatan yuqori bo'ladi. Na-KMSning eritmasiga quyimolekulyar tuzni qo'shishi sirt tarangligini kamaytirishi xossasi, aynan polimer-polimer ta'siri orqali kompleks olishda chegaraviy ta'sirlashishga ijobiy ta'sir qilishini aytish mumkin.


Dissertatsiyaning "**Bombyx mori** xitozani va Na-karboksimetilsellyulozaning konsentrlangan eritmalarining tabiati. Reologik tadqiqotlar" nomli to'rtinchi bobda o'rtacha konsentratsiyali diapozonida XZ va Na-KMS eritmalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari va reologik xossalari o'rganildi, bunga sabab o'rganilayotgan polisaxaridlar amaliyotda asosan o'rtacha va yuqori konsentrlangan eritmalar shaklida qo'llanilishi bilan, shuningdek reologik

Dispers tizimlarning oqimiga deformatsion ta'sir natijasida dastlab bo'kishi, qisman erishi (1-3) va to'liq erishi (4) va zarrachalar o'z shaklini saqlab qolishi (5) aniqlandi. XZning DDni ortishi samarali qovushqoqlikni (η_{eff}) ortishiga olib keladi, bu XZni gel xosil qilishi va erishi bilan bog'liq. XZni bunday tabiatini dispers tizimdagi erigan va erimagan zarrachalarining o'zaro ta'sirlashuvi belgilab beradi. Shuning uchun, tizimlarning qovushqoq oqimining faollashuv energiyasini aniqlash juda muhimdir.

Na-KMS eritmasi misolida polielektrolit effekti mavjud bo'lgan va bo'lmagan holatida sirt tarangligini namoyon bo'lishi hususiyatlari takomillashtirilgan Rebinder qurilmasi yordamida o'rganildi. Na-KMSning polielektrolit effekti sirt tarangligini o'rganishda ham tasdiqlandi. 4-rasmdan ko'rinib turibdiki, o'rtacha konsentrlangan eritma suyultirilganda (1-3g/dl) polielektrolit effekti kuzatilib, Na-KMS eritmasi uchun α ko'ffisiyentini intensiv pasayishi kuzatiladi (4-rasmdagi 1-egri chiziq). Eritma suyultirilgan ($C < 1$ /dl) sohasida α ning kamayishi sezilarsiz va egri chiziq bir-biri bilan tutashadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki,

tadqiqotlarni amalga oshirilishi esa XZ va Na-KMSning o‘zaro ta’sirlashishi yuzasidan muhim ma’lumotlar berishi bilan izohlanadi.



5-rasm. Na-KMS eritmasi va XZ/Na-KMS (90:10) aralashmasi uchun nisbiy qovushqoqlikni (η_{nis}) konsentratsiyaga (C) bog‘liqligi.

kuchayishi, ya’ni qarama-qarshi zaryadga ega polisaxaridlar zanjirining to‘qnashish joylarida tugunlar hosil bo‘lishi va pirovardida makromolekulalarning strukturalanishi tufayli sodir bo‘ladi. Bunday natija, XZ va Na-KMS o‘zaro birikib plyonka hosil qila olish qobiliyati mavjudligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, hosil bo‘ladigan tugunlar soni, bir nechta omillarga, xususan muhitning pH qiymatiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday gellar mexanik ta’sir va haroratda oqishi mumkin. Shu bois, oqishning reologik xossalarini o‘rganish tizimdagi ichki va tashqimolekulyar ta’sirlashishini hamda strukturaviy o‘zgarishlarni baholashga imkoniyat beradi.

Na-KMS gelling oqimdagi tahlili turli haroratlarda Na-KMS gellari uchun samarali qovushqoqlik ($\ln\eta_{\text{eff}}$)ni tezlik gradiyentiga (γ) bog‘liqligida o‘rganildi va oqim tezligi gradiyenti oshishi bilan samarali qovushqoqlik qiymatlari monoton ravishda pasayishi kuzatildi, bu esa siljish oqimida haroratning oshishi molekulalararo bog‘lanishlarning uzilishiga yordam berishini anglatadi. Na-KMS gellar nafaqat siljish ta’sirida, balki issiqlik ta’sirida ham suyuqlik holatiga aylanadi, bunda gel tuzilmalari nisbatan intensiv buziladi va dinamik oqim ta’minlanadi.


Tajribalar natijasida Na-KMS uchun hisoblangan faollashuv energiyasining $E_a=18,28$ kJ/mol qiymati molekulalararo vodorod bog‘larining energiyasi sohasida (3-30 kJ/mol) ekanligini va siljish oqimida Na-KMSda molekulalararo vodorod bog‘larning uzilishini ko‘rsatadi.

Xitozan gelling oqimdagi xususiyatlarini o‘rganish natijasida harorat ortishi bilan xitozanni DD 78% bo‘lgan namunasida qovushqoqlik intensiv ravishda pasayib borishi kuzatildi. Ushbu holat mazkur namunani kislotali muhitda eruvchanligi nisbatan yuqori ekanligi bilan ham bog‘liqdir. Haroratning ortishi XZ makromolekulalarining o‘zaro ta’sirlashuvi buzilishi bilan ham tushuntiriladi. DD 78% bo‘lgan XZ namunasi uchun aniqlangan faollashuv energiyasi $E_a = 44,3$ kJ/mol ni tashkil etdi. Shuningdek, XZ eritmalarining oquvchanligiga DD ta’siri 30 va 62% lik namunalarda ham o‘rganildi. Aniqlanishicha, DD ortishi bilan faollashuv

5-rasmda Na-KMS eritmasi va XZ/Na-KMS aralashmasi (10:90 hajm,%) konsentratsiya (C) ortib borishi bilan gel xosil bo‘lishining gidrodinamik holatini ko‘rsatadi. Tajribadan aniqlandiki, Na-KMS eritmasi konsentratsiyasining ortishi bilan $C \geq 3$ g/dl dan yuqori holatda va XZ/Na-KMS aralashmasi $C \geq 2,5$ g/dl bo‘lganda tizimlarning nisbiy qovushqoqligi sezilarli darajada oshadi. Qovushqoqlik o‘zgarishining bunday tabiati, XZ/Na-KMS tizimida gel hosil bo‘lishi molekulalararo o‘zaro ta’sirning

energiyasi ortib boradi. Ushbu holat DD darajasi ortishi bilan molekulararo ta'sirlanish kuchayib borishi bilan tushuntiriladi.


X3/Na-KMS gelini oqimdag harakatining tahlili XZ va Na-KMS gellarining 5% li eritmalarini 10:90 xajmiy foiz nisbatda aralashtirilib o'rganildi. Reologik tahlillar 25, 40, 55, 70°C haroratlarda amalga oshirildi. Bunda XZ/Na-KMS gellarining strukturaviy va fazaviy holatini o'zgarishiga alohida e'tibor qaratildi




6-rasm. Xitozan/Na-KMS gellari (10:90 hajm, %) uchun samarali qovushqoqlik ($\ln \eta_{\text{eff}}$)ni tezlik gradiyenti (γ)ga bog'liqligi, 25°C, 40°C, 55°C va 70°C haroratlarda.

gellarning suyuq holatga o'tishiga qaramay, fazalarni ajralishi sodir bo'lmaydi. X3/Na-KMS tizimi uchun faollanish energiyasi qiymatining XZ va Na-KMS ga nisbatan o'rtacha qiymatda bo'lishi komponentlarning o'zaro bog'lanish mavjudligidan va bu gelning reologik xossalarida xam namoyon bo'lishi bilan izoxlanadi.

Xitozan mikrozarachalarining oqimdag xususiyatlari. XZ namunalari kukunli va zarrachali shakli eritmalar tayyorlash va ularni amaliyotda qo'llash uchun juda qulay shakldir. XZ gidrogeli tashqi maydonlar ta'siriga, ayniqsa oqimning deformatsiya ta'siriga juda sezgir bo'lganligi sababli, suvli muhitda va eritmada o'rganildi. Ushbu tadqiqot uchun xitin (XT) va deasetillanish darajasi 57%, 85%; 89% va 96% bo'lgan, o'rtacha o'lchami 250 mkm XZ namunalari olingan. Xitin va XZ mikrozarachalarining bo'kishi natijasida o'lchamlarining o'zgarishi optik mikroskopiya usuli yordamida aniqlangan. Siljish oqimi davomida bo'kkan mikrozaralar haqidagi ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, namunalar nonyuton suyuqliklar tabiati bilan tavsiflanadi, bu ayniqsa yuqori siljish kuchlanishlarida (σ) DD katta bo'lgan namunalar uchun aniq namoyon bo'ladi (7-rasm). Namunalarning $\gamma < 400 \text{ s}^{-1}$ sohadagi egri chiziqlarining sinishi mavjudligi, mikrozarachalardagi deformatsion o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, $\gamma > 400 \text{ s}^{-1}$ sohada namunalar Nyuton suyuqliklari kabi harakat qiladi. Bunday holda, gidrogel namunalari (DD $\geq 90\%$) pastasimon ko'rinishga ega bo'ladi. Bu albatta, oqimdag deformatsiyalangan gidrogyel zarralarining bir-biriga yopishishi natijasidir.



7-rasm. 1) XT; 2) XZ (57%); 3) XZ (85%); 4) HZ (89%); 5) XZ (96%) mikrozarrachalar uchun tezlik gradiyentining (γ) siljish kuchlanishiga (σ) bog'liqligi.



8-rasm. XZ mikrozarrachalarini 2%li CH_3COOH da ($\gamma=730\text{s}^{-1}$) qovushqoqligining (η_{eff}) kesishuv oqimi vaqtiga (t) bog'liqligi 1) XT; 2) XZ (57%); 3) XZ (85%); 4) XZ (89%); 5) XZ (96%).

Kislotali muhitda XZ namunalari nafaqat bo'kadi, balki eriydi ham (8-rasm). Ushbu jarayonlar tabiatan kinetik bo'lib, sezilarli darajada DDga bog'liqdir. XZni kislotali muhitda erishi ko'p bosqichli bo'lib, bu intensiv bo'kish, mikrozarrachalarning deformatsion tartiblashuvi, makrozanjirlarning buzilmasdan parchalanishi va erishi, siljish oqimi ta'siri yo'nalishi bo'yicha makromolekulalarning deformatsion tartiblanishi bilan tushintirildi.


Dissertatsiyaning "Xitozan va Na-KMS asosida kompleks va plyonkalarini olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari" nomli beshinchi bobida dastlab xitozanni flyurossent moddasi bilan modifikatsiya qilish tajribasi keltirilgan. Flyurossent xitozanini (XZ/FITS) olish uchun flyurossen-5-izotiosianat qo'llanildi. XZ/FITS 100/1 va 50/1 miqdoriy nisbatlarda olindi. Sintez qilingan flyurofor xitozan UB nurini yuqori darajada yutishi aniqlandi va natijada analitik ultrasentrifuga (AUS)ning UB-optik tizimida xitozanni ko'rinishini ta'minladi. Shu bilan birga, fluroizosianat xromofor guruhining kiritilgan miqdori xitozanni konformatsion va molekulyar massaviy ko'rsatkichlarini buzmasligi tajribalarda ko'rsatildi.

AUSda sun'iy qatlamlanish usuli bilan XZ va Na-KMS asosida IPK olish uchun OPTIMA XL-A AUS qo'llanildi. Buning uchun ta'sirlashadigan eritmalarning to'qnashish qatlamini hosil qiluvchi takomillashtirilgan maxsus kyuvetadan foydalanildi. XZ/Na-KMS IPK hosil qilishda variatsiyalangan tajriba shartlari 1-jadvalda ko'rsatilgan. Barcha tajribalar uchun AUSning UB detektor skanerlash ma'lumotlari olingan. 9-rasmda namuna sifatida 1-jadvaldagi "b" tajriba uchun UB-skaner diagrammasi keltirilgan. Ushbu jadvaldagi barcha tajriba sharoitlarida polimerlarning o'zaro ta'sirlashuvi kuzatildi, lekin turlicha tavsifdagi kompleks shakllanishi qayd qilindi. Ushbu holat polimerlarning molekulyar massasi, eritma konsentratsiyasi va pH qiymati turlicha bo'lganligi bilan izohlandi.

1-jadval. AUSda XZ va Na-KMS IPK hosil qilishning tajriba sharoitlari.

N	pH	Xitozan		Na-KMS	
		MM, 10 ³	Cer, %	MM, 10 ³	Cer, %
a	4,5	100	2,0	120	1,0
b	4,5	100	2,5	120	1,0
c	4,5	100	3,0	120	1,0
d	4,5	50	2,0	120	1,0
e	4,5	50	2,5	120	1,0
f	4,5	50	3,0	120	1,0
g	3,6	100	2,5	120	1,0
h	5,5	100	2,5	120	1,0

9-rasm. AUSda XZ/Na-KMS kompleksi shakllanishining UB signali. $\lambda=210$ nm. Rotorning aylanishi 3000 ayl/min. 1-jadvaldagi "b" tajriba sharoitiga to'g'ri keladi.




Polimer kompleksini shakllanishining kinetikasi UB signallarni vaqt birligida kengligining o'zgarishini baholash orqali amalga oshirildi va hosil bo'lgan plyonkaning sifat ko'rsatkichlari, xususan, plyonkaning qalinligi (PQ), plyonkaning shaffofligi (PSH), plyonkaning gomogenligi (PG), plyonkaning simmetriyasi (PS)

2-jadval. Analitik ultrasentrifugada XZ va Na-KMS IPKni shakllanishi ko'rsatkichlari.

№	Cxz, %	pH	C _{KMS} , %	PQ, mkm	PG	PS	PSH
MM(XZ)=50•10³ Da							
1	2.0	4.5	1,0	630	0,70	0,35	2.2
2	2.5	4.5	1,0	525	0,67	0,55	2.2
3	3.0	4.5	1,0	655	0,73	0,60	2.2
MM(XZ)=100•10³ Da							
4	2.0	4.5	1,0	470	0,66	0,64	2.3
5	2.5	4.5	1,0	565	0,87	0,80	2.3
6	3.0	4.5	1,0	650	0,76	0,74	2.3

UB signalining shaklini tahlil qilish orqali aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan. Gomogenlik, simmetriya, shaffoflik va qalinligi bo'yicha eng yuqori sifat ko'rsatkichiga XZ eritmasi 2,5%, MM=100•10³ g/mol va Na-KMSning eritmasi 1%, MM=120•10³ g/mol va eritma muhiti pH 4,5 bo'lgan sharoitda erishilgan.

Qo'llanilgan uslubning samarasini aniqlash maqsadida polisaxaridlarni oddiy aralashtirish va yuqoridagi usulda olingan plyonkalar mikroskopik tahlil qilingan (10-rasm). Ko'rinib turibdiki, sun'iy qatlamlanish orqali olingan plyonka yuzasining birjinsliligi oddiy usul bilan olingan plyonkaga nisbatan yuqori darajada




10-rasm. XZ/Na-KMS plyonkasining mikroskopik tasviri, a) eritmalarni aralashtirish yo'li bilan olingan; b) AUSda olingan (1-jadvaldagi «b» tajriba uchun).

XZ, Na-KMS va XZ/Na-KMS IPKning kumush ionlariga nisbatan sorbsion qobiliyati sifat va miqdoriy jihatdan baholandi. $C_{Ag^+}=20$ mg/ml va $C_{Ag^+}=40$ mg/ml eritmadan kumush ionlarini XZda yutilishi 13,10% va 48,26% ni, Na-KMSda $C_{Ag^+}=20$ mg/ml da Na-KMS Ag^+ 41,84% yutilish aniqlandi. XZ/Na-KMS IPKning sorbsion xususiyatlari yuqori ekanligi va kumush ionlari konsentratsiyasining o'rganilgan diapazonlarida (20,40 mg/ml) 54,66-56,44% ni tashkil qildi.

Mikroskopik tahlillardan aniqlandiki, XZ/Ag va Na-KMS/Ag namunalarining plyonkalarida sferik va kubik zarrachalar hosil bo'lib, kumush NZ hosil bo'lganligini va ular polimer matrisasi bo'ylab tarqalishi monodispers ekanligi aniqlandi.

XZ/Na-KMS IPK plyonkalarining organik moddalarga nisbatan sorbsion xususiyatlari vakuum-kalorimetrik usulda o'rganildi. Benzol va toluol sorbsiyasining differensial issiqlik, izoterma, entropiya va termokinetik qiymatlari aniqlandi.



11-rasm. Benzol adsorbsiyasining differensial issiqligi: (gorizontal shtrixli chiziq-benzolning kondensatsiyalanish issiqligi); 1-XZ, 2-XZ/Na-KMS (9:1), 3-XZ/Na-KMS (1:9), 4-XZ/Na-KMS (1:1).

0,3; 0,5; 0,6 va 0,7 mmol/g ni tashkil etdi. Shuningdek, XZ/Na-KMS=9:1 hajm.% namunasida toluolning adsorbsion qiymatlari yuqori ekanligi aniqlandi. Adsorbsion jarayonning bunday tabiatga ega bo'lishi IPKdagi polimerlarning funksional guruhlarning tabiatiga bog'liqligi bilan izohlandi va aromatik birikmalarning sorbsiyalanishida molekulararo gidrofob ta'sirlashish orqali amalga oshishi bilan tushuntirildi.


Dissertatsiyaning "**Dastlabki polimer matrisalar va IPKning spektral hamda mikroskopik tadqiqotlari**" nomli oltinchi bobida polikompleksni tashkil etuvchi alohida polisaxaridlarni va o'zaro ta'sirlashuvining identifikatsiyasi va qiyosiy tahlillari amalga oshirilgan.

XZ va XZ/Na-KMS IPKning 9:1,1:9,1:1 hajmiy nisbatlardagi plyonkalarida benzol va toluol molekularining entropiya, izoterma va issiqlik muvozanat vaqtining differensial issiqligi aniqlandi va organik moddalarning sorbsiyalanishi bilan izohlandi (11-rasm).


Sorbsiyalangan benzol miqdori XZda va 9:1, 1:9 va 1:1 hajm nisbatlaridagi XZ/Na-KMS IPKda mos ravishda 0,5; 0,8; 0,6 va 0,7 mmol/g ni tashkil qildi. XZ/Na-KMS=9:1 namunadagi benzolning adsorbsion qiymatlari boshqa namunalarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

XZdagi va 9:1, 1:9, 1:1 nisbatdagi XZ/Na-KMS IPKda toluolning sorbsiyalangan miqdori mos ravishda

XZ namunalarining spektral YaMR-spektroskopik tadqiqotlari natijalari asosida makromolekulalarning magnitlanishi va harakatchanligining qiymati molekulyar og'irlikka bog'liqligi ko'rsatilgan.



12-rasm. XZ va turli tarkibdagi XZ/KMS tizimining IQ-spektri.



13-rasm. XZ eritmalari va uning Na-KMS (1:0,1) bilan aralashmalari uchun qovushqoqlik (1-XZ, 2-XZ/Na-KMS) va oriyentatsiyalashuvining ko'ndalang maydon tezlik gradiyentiga (3-XZ, 4-XZ/Na-KMS) bog'liqligi.

keyin $\gamma=200s^{-1}$ da platoga yetadi. Aralashma holatida $\gamma=200s^{-1}$ dan keyin samarali qovushqoqlikning ortishi kuzatiladi, bu XZ va Na-KMS molekulari o'rtasida samarali o'zaro ta'sir mavjudligini ko'rsatadi. Bunda zanjir oriyentatsiya koeffitsiyenti 0,6-0,7 ga yetadi. Bu esa, XZ va Na-KMS molekulari yuqori oriyentatsiyalangan holatda ekanligini bildiradi va o'z o'rnida polisaxaridlarning molekulari yuqori yo'naltirilgan holatga o'tkazilganda o'zaro samarali ta'sir qilishini bildiradi. Shu bilan birga, XZ va KMS eritmalari va aralashmalarining shaffofligi saqlanib qolishi polisaxarid molekulari o'rtasida taxminan 1-10 nm masshtabda tugunlar paydo bo'lishini ko'rsatadi, chunki ushbu masshtab qiymatidan yuqori struktura elementlari mavjud bo'lsa eritma loyqalikni namoyon qiladi.

IQ spektrlari orqali XZ, Na-KMS va ularning turli nisbatdagi aralashmalari tahlil qilindi (12-rasm). XZ:KMS pilyonkalari spektrlarida xitozanni yutish sohasi aniq ifodalangan bo'lib, bu dastlabki polimerdagi yutilishlarning yuqori intensivligi bilan bog'liqdir. XZ:KMS tizimining 2:8 va 7:3 nisbatlari uchun vodorod bog'lari bilan ta'sirlashgan OH-guruhlarining valent tebranishlari yutilish sohasini kichik tebranishlar sohasiga ($3420-3430\text{ cm}^{-1}$) biroz siljishi va intensivligining ortishi kuzatilgan. Ushbu o'zgarish, KMS va XZ molekulararo vodorod bog'lari hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi.

XZ/Na-KMS aralashmasida "polisaxarid-polisaxarid" o'zaro ta'sirini aniqlash uchun polarizasion-ultramikroskopik tadqiqotlar o'tkazilgan (13-rasm). Ko'rinib turibdiki, XZ eritmasining samarali qovushqoqligi dastlab siljish maydonining tezlik gradiyenti (γ) ortishi bilan kamayadi va

Dissertatsiyaning “***Bombyx mori* xitozanining termodinamik parametrlari. Xitozan va Na-karboksimetilsellyulozaning o‘zaro ta’sirlashuvini modellash** nomli yettinchi bobda dastlabki polimerlarning termodinamik barqarorligi va *Bombyx mori* xitozani eritmasining ionlanish jarayonidagi termodinamik parametrlari va XZ bilan Na-KMSning o‘zaro moyilligi modellashtirilib o‘rganilgan.

Ionlanish jarayonida eritmadagi XZning konformatsion holati termodinamik parametrlarining o‘zgarishi orqali o‘rganildi. Tajribalar XZning 0,1 N HCl dagi konsentratsiyasi 0,1% bo‘lgan eritmasida (DD=95%) o‘tkazildi. pH qiymatlari turlicha bo‘lgan ionlanish darjasi α va haroratlarda T o‘lchandi va pK qiymati $pK = pH - \lg[\alpha/(1-\alpha)]$ formulasi yordamida hisoblandi. Olingan ma’lumotlarga asosan pK ning α bilan turli T dagi bog‘liqligi shakllantirildi. XZ eritmasini ionlash jarayonida zanjir konformatsiyasidagi o‘zgarishlarini tavsiflovchi ΔG_{konf} Gibbs energiyasi hisoblab chiqildi. Xitozan makromolekulasini ionlanishdagi konformatsion o‘zgarishidagi Gibbs energiyasi ΔG_{konf} 1,48-1,51 kJ/mol oralig‘ida aniqlandi. ΔG_{konf} ning harorat ortishi bilan ko‘tarilishi konformatsion o‘zgarishda termodinamik muvozanatga erishish uchun issiqlik sarf etilishi bilan izohlanadi. Konformatsion o‘zgarishlarda entropiya qiymati $\Delta S_{konf} = -1,0$ J/mol·K va entalpiya $\Delta H_{konf} = 1,48$ kJ/mol ekanligi aniqlandi. Ushbu qiymatlar XZ molekulari qattiq zanjirli birikmalar guruhiga kirishini va uning eritmadagi konformatsion o‘zgarishlari unchalik katta emasligini, biroq termodinamik sharoitlar o‘zgartirilsa XZ konformatsiyasi o‘zgarishi aniqlandi.


Xitozanning Na-KMS bilan o‘zaro ta’sirining nazariy tadqiqotlarida XZning deasetillanish darajasiga bog‘liq ravishda aminoguruhlar zaryadining taqsimlanishini, zanjir uzunligi turlicha bo‘lgan XZdagi asetamid va aminoguruhlarining Na-KMS bilan o‘zaro ta’sirida va ularning o‘zaro barqaror interpolimer kompleks xosil bo‘lishida guruhlarining reaksiya qobiliyati o‘rganildi.

Kompyuter tajribalarini o‘tkazish uchun xitin va XZ tuzilmalarining modellari yaratildi va hisob-kitoblar quyidagi modellar yordamida amalga oshirildi: 1) xitin va XZning funksional guruhlari; 2) XZning monomer zvenosi; 3) xitinning monomer zvenosi; 4) KMS ning monomer zvenosi; 5) protonlangan XZ va uning xitin bilan dimeri; 6) XZni turlicha uzunlikdagi va deasetillanish darajasidagi sopolimerlari.

Chegaraviy molekulyar orbitallar (MO), yuqori band qilingan MO (YUBMO) va pastki vakant MO (PVMO)lar molekulaning reaksiya qobiliyatini va kinetik barqarorligini baholashga imkon beradi. YUBMO tizimning elektronni berish qobiliyatini, PVMO esa elektronni qabul qilish qobiliyatini baholaydi.

